

**«O'zbek geologiya qidiruv» aksiyadorlik jamiyatining sovg'alar berish va olish,  
biznes-tadbirlarni tashkil etish va ishtirok etish, vakillik  
xarajatlarini amalga oshirish bo'yicha  
SIYOSATI**

**1. ASOSIY QOIDALAR**

1.1. "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon matnda – "Jamiyat") biznes sovg'alarini berish va olish, biznes tadbirlarida ishtirok etish va tashkil etish, vakillik xarajatlarini amalga oshirish Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurash siyosatida belgilangan tamoyil va talablariga muvofiq bo'lishi lozim.

1.2. Bu siyosat Jamiyatning ichki me'yoriy hujjati bo'lib, u sovg'alarini taqdim etish va olish, biznes tadbirlarida ishtirok etish va tashkil etish, shuningdek, vakillik xarajatlarini amalga oshirish va Jamiyatdagi biznes mehmondo'stlik belgilarini qabul qilish bo'yicha asosiy tushunchalarni, tamoyillarni va tartiblarni belgilaydi.

1.3. Ushbu siyosatining maqsadlari:

- xodimlarning sovg'alar berish va qabul qilish, biznes tadbirlarida ishtirok etish va tashkil etish, shuningdek, vakillik xarajatlarini amalga oshirish va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, korrupsiyaga qarshi siyosat va Jamiyatning boshqa ichki me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiqqligini ta'minlash;

- Jamiyat xodimlarining sovg'alarni berish va qabul qilish, biznes tadbirlarida ishtirok etish va tashkil etish, shuningdek, rasmiy vazifalarni bajarish vaqtida vakillik xarajatlarini amalga oshirish va biznes mehmondo'stligini qabul qilish bo'yicha yagona tartibni aniqlash;

- sovg'alar berish va qabul qilishda xodimlarning manfaatlar to'qnashuviga ega bo'lish ehtimolini minimallashtirish;

- Jamiyatda sovg'alar berish va qabul qilish, biznes tadbirlarni tashkil etish va ishtirok etish, shuningdek vakillik xarajatlari va mehmondo'stlik ishi belgilari ta'minlash nazorati.

**2. SIYOSATNII QO'LLASH DOIRASI**

2.1. Ushbu siyosatining tamoyillari va talablari barcha xodimlar uchun, ularning egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar, majburiydir.

2.2. Jamiyatning har bir xodimi ishga qabul qilinganda va ushbu siyosatda nazarda tutilgan boshqa hollarda ushbu siyosat bilan tanishishi hamda tanishganlik yuzasidan imzo bilan tasdiqlanishi va uning qoidalariga to'liq rioya qilishi kerak.

**3. ATAMALAR VA QISQARTMALARNING TA'RIFLARI**

3.1. Kiritilgan atamalar va ta'riflar:

**Yaqin qarindoshlar**- xodimga qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzandlar, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillari tushuniladi.

**Brend biznes sovg'alari** - Jamiyatning nomi va/yoki logotipi bilan brendli mahsulotlar (masalan, bloknotlar, qalam yoki kalendarlar va boshqalar). Shu bilan birga,

beruvchining ramziy va/yoki logotipi sovgʻadan ajralmas boʻlishi va bunday sovgʻani odatiy koʻrsatish/ishlatish paytida aniq koʻrinadigan joyga joylashtirilishi kerak.

**Davlatning mansabdor shaxsi:**

- Oʻzbekiston Respublikasining yoki xorijiy davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi yoki sud hokimiyatida tayinlangan yoki saylanadigan lavozimni egallagan har qanday shaxs;

- Oʻzbekiston Respublikasi yoki xorijiy davlat uchun, shu jumladan davlat organi, korxona yoki muassasa uchun davlat funksiyalarini bajaruvchi har qanday shaxs;

- har qanday mansabdor shaxs yoki xalqaro tashkilot vakili;

- siyosiy arboblari, siyosiy partiyalarning mansabdor shaxslari, jumladan, siyosiy lavozimlarga nomzodlar.

**Davlat funksiyalari** - davlat tomonidan vakil qilingan va davlat manfaatlari yoʻlida amalga oshiriladigan, masalan, davlat xaridlari bilan bogʻliq har qanday faoliyat.

**Davlat organlari, korxona va muassasalar** — davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari (shu jumladan, vazirliklar, xizmatlar, agentlik va idoralar) va ularning tarkibiy boʻlinmalari, shuningdek, davlat tomonidan bevosita yoki bilvosita nazorat qilinadigan barcha yuridik shaxslar.

**Biznes sovgʻa** - kontragentga va/yoki boshqa uchinchi shaxsga Jamiyat nomidan va/yoki hisobidan Jamiyat xodimi tomonidan taqdim etilgan har qanday sovgʻa, shuningdek, Jamiyat yoki uning xodimi kontragent va boshqa uchinchi shaxslar tomonidan qabul qilinadigan sovgʻa.

**Biznes tadbirlar** - Jamiyat ish faoliyati doirasidagi tadbirlar (delegatsiyalar qabul qilish, uchrashuvlar, davra suhbatlari, forumlar, konferensiyalar, va hokazo.), va shunga oʻxshash tadbirlar.

**Koʻngilochar tadbirlar**-Jamiyatning ish faoliyati doirasidagi ommaviy tadbirlar (shu jumladan: madaniy, sport va boshqa).

**Tizim korxonalari** (TQ) - ustav kapitalida «Oʻzbek geologiya qidiruv» aksiyadorlik jamiyatining ulushi boʻlgan yoki u tomonidan bevosita yoki bilvosita nazorat ostida boʻlgan tashkilot yoki korxona;

**3.2. Biznes mehmondoʻstlik belgilari** – faoliyatni olib borishda yoki xodimlarning manfaatlari uchun hamkorlikni qoʻllanilishi maqsadida uchinchi shaxslar xarajatlari, jumladan: uchrashuvlar, nonushta, tushlik, kechki ovqatlanish, kofe-breyk va muzokaralar, transport xarajatlari va boshqalar.

**Kontragent** - Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlariga kiradigan har qanday jismoniy shaxs, xodimlar bundan mustasno, va/ yoki yuridik shaxslar (shu jumladan, ularning filiali va / yoki vakolatxonasi).

**Manfaatlar toʻqnashuvi** - bu xodimning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga taʼsir koʻrsatayotgan yoxud taʼsir koʻrsatishi mumkin boʻlgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan Jamiyatning huquqlari va qonuniy manfaatlari oʻrtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin boʻlgan vaziyat.

**Shaxsiy manfaat** - xodimning va/yoki uning yaqin qarindoshlarining pul, boshqa mol-mulk, shu jumladan mulkiy huquqlar, mulkka oid xizmatlar, bajarilgan ish natijalari yoki uning va/yoki yaqin qarindoshlari tomonidan boshqa imtiyozlar (afzalliklar) olish imkoniyati bilan bogʻliq qiziqishi.

**Xalqaro tashkilot** - davlatlar, hukumatlar tomonidan tashkil etilgan har qanday xalqaro tashkilot, ularning tashkiliy shakli va vakolatidan qatʼiy nazar, jumladan, mintaqaviy iqtisodiy integratsiya tashkilotlari.

**Noqonuniy foyda** - pul yoki boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, imtiyozlar, xizmatlar, nomoddiy aktivlar, va'da qilingan, taklif qilingan, taqdim etilgan yoki qonuniy asoslarsiz olingan boshqa moddiy yoki nomoddiy foyda.

**Jamiyat** – «O'zbek geologiya qidiruv» aksiyadorlik jamiyati.

**Vakillik xarajatlari** - vakillarning (ishtirokchilarning) rasmiy qabuli (nonushta, tushlik yoki shunga o'xshash tadbir), ularni tashish, muzokaralar chog'ida bufet xizmati ko'rsatish, Jamiyat xodimlari hisobida bo'lmagan tarjimonlar xizmatlari uchun to'lovlar bilan bog'liq xarajatlar.

**Ishchi-xodimlar** - Jamiyat bilan tuzilgan mehnat shartnomalari asosida o'z rasmiy vazifalarini bajaradigan ishchi-xodimlar hamda Jamiyat rahbariyati kiradi.

3.3. Ushbu siyosatda qo'llanilgan, lekin aniqlanmagan terminlar Jamiyatning boshqa ichki me'yoriy hujjatlarida va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida qo'llanilgan ma'noda qo'llaniladi.

#### **4. ISH YUZASIDAN SOVG'ALAR VA MEHMONDO'STLIK BELGILARINI QABUL QILISH**

4.1. Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari xodimlariga o'z xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq holda jismoniy va yuridik shaxslardan biron-bir sovg'a yoki ish jarayonida mehmondo'stlikning belgilari, qarz, kafolatlar, kafilliklar, mukofotlar shaklida rag'batlantirish vositalarini, naqd pul mablag'lari yoki ularning ekvivalenti, qimmatli qog'ozlar ko'rinishida moddiy yordam qabul qilish ta'qiqlanadi.

4.2. Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari xodimlari tomonidan rasmiy delegatsiyalar tarkibida, rasmiy tadbirlarda, jumladan, xorijda olingan har qanday sovg'alar summasidan qat'iy nazar Jamiyatning mulkiga o'rnatilgan tartibda o'tkaziladi.

4.3. Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari xodimlariga umumiy bayramlar (yangi yil, Vatan himoyachilari kuni (14 yanvar), Xalqaro xotin-qizlar kuni (8 mart), milliy (Hayit, Navro'z va Mustaqillik) bayramlar va kasbiy bayramlar (geologlar kuni), shaxsiy faoliyatidagi muhim hodisalar (yubileylar, tug'ilgan kunlar) va boshqa munosabatlar (ish faoliyatidagi yutuqlar) doirasida berilishi mumkin.

Jamiyatning tarkibiy bo'linmalarining bitta xodimiga sovg'a uchun sarflaydigan harajat summasi, har bir holatda sovg'aning umumiy qiymati (barcha soliqlar va yig'implarni hisobga olgan holda) mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 4 (to'rt) baravari miqdoridan oshmasligi kerak.

4.4. Bunday sovg'alarni berishda quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyatning korrupsiyaga qarshi siyosati, Odob-axloq kodeksi va boshqa ichki me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiq bo'lishi;

- Muayyan voqea/hodisaga mutanosib ravishda oqilona asoslangan va ushbu siyosatining 4.3.-bandida belgilangan chegaralariga muvofiq bo'lishi;

- sovg'alar Jamiyatning markaziy apparati tarkibiy bo'linmalarining kamida uch nafar xodimlari ishtirokida berilishi;

- sovg'a berish jarayoni tabrik nutqi bilan birga bo'lishi, unda sovg'a berishga sabab bo'lgan voqea o'zining aniq ifodasini topgan bo'lishi lozim.

4.5. Shubhalar paydo bo'lmasligi uchun boshqa davlat organlari va tashkilotlari xodimlari, sheriklar va kontragentlardan ushbu Siyosatining 4.2 va 4.3-bandlarida ko'rsatilmagan boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan har qanday bayram bilan bog'liq holda xizmat majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan olinadigan sovg'alar va boshqa moddiy boyliklarni olish taqiqlanadi.

4.6. Jamiyat nomidan xalqaro konferensiyalarda, simpoziumlarda va boshqa ishbilarmonlik (xizmatga oid) yig'ilishlarda sovg'alar berish Jamiyat raisi yoki uning o'rinbosarlarining buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Bunda sovg'a oluvchi hamkor davlat qonunlarining talablari inobatga olinishi lozim.

4.7. Shubhaga yo'l qo'ymaslik uchun xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy (to'y-tantana) bayramlarda, xodimlarning boshqa xodimlarga taqdim etilgan sovg'alari xodimlarning shaxsiy sovg'alari sifatida e'tirof etiladi, bu siyosat bilan tartibga solinmaydi yoki taqiqlanmaydi. Shu bilan birga, bunday sovg'alarni taqdim etishda va qabul qilishda xodimlar korrupsiya xavf-xatarini yaratmaganliklariga ishonch hosil qilishlari shart.

4.8. Sovg'ani qabul qilishning qonuniyligi to'g'risida shubha tug'ilgan har qanday hollarda Jamiyatning markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari xodimi Jamiyat Ichki nazorat boshqarmasiga maslahat so'rab murojaat qilishi lozim.

4.9. Jamiyatda quyidagi sovg'alari va biznes mehmondo'stlik belgilari taqiqlanadi:

- naqd pul va naqd pulsiz mablag'lar yoki ularning ekvivalentlari (shu jumladan, qimmatli qog'ozlar, sertifikatlar va sovg'a kartalari ko'rinishida);
- qimmatbaho, hashamatli buyumlar;
- sovg'a oluvchi uchun manfaatlar to'qnashuvi vaziyatini yaratsa;
- Jamiyatning faoliyati bilan bog'liq har qanday harakat/harakatsizlikni amalga oshirishga rag'bat sifatida, shu jumladan, har qanday noqonuniy foyda olish maqsadida noqonuniy haq sifatida taqdim etilgan yoki olingan;
- biznes qaror qabul qilish jarayonida, shu jumladan, xarid qilish tartib-taomillari jarayonida taqdim etilgan yoki olingan;
- sovg'a taqdim etuvchi uchun har qanday majburiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lsa;
- Jamiyat va / yoki qabul qiluvchi / uchun bunday biznes sovg'asini taqdim etish yoki olish yoki biznes mehmondo'stlik belgisi haqida ma'lumot oshkor qilingan taqdirda, uning obro'siga raxna soluvchi xavf yaratish.

4.10. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining davlat mansabdor shaxslariga har qanday turdagi sovg'a berishni taqiqlaydi.

4.11. Xorijiy davlatning davlat mansabdor shaxslariga biznes sovg'alar berish faqat rasmiy delegatsiyalar va/yoki xalqaro ko'rgazmalar doirasida ruxsat etiladi (bu xorijiy davlat qonunchiligi talablariga to'g'ri kelishiga rioya qilinishi sharti bilan). Bunday biznes sovg'alar qiymati xorijiy davlat qonun hujjatlari talablariga muvofiq chegaralangan bo'lishi mumkin.

Biznes sovg'aning potensial oluvchisini davlat mansabdor shaxsining maqomiga tekshirish va xorijiy davlatning talablarini tahlil qilish uchun javobgarlik ushbu shaxsga biznes sovg'ani tuhfa qilishni tashkil qilgan Jamiyat xodimiga yuklatiladi.

4.12. Jamiyat nomidan uchinchi shaxslarga taqdim etiladigan biznes sovg'alar har doim sovg'a beruvchi sifatida Jamiyat mablag'laridan to'lanishi kerak.

4.13. Biznes sovg'alarini taqdim etuvchi yoki biznes sovg'alarini qabul qilgan xodimlar ushbu siyosatda ko'rsatilgan talablarga to'liq va so'zsiz rioya qilish uchun shaxsan javobgardirlar.

4.14. Agar biznes sovg'asi yoki biznes mehmondo'stlik haqida shubhalar mavjud bo'lsa, xodimlar ularni bevosita rahbariga va/yoki Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati bilan muhokama qilishlari shart.

## 5. BIZNES SOVG'ALAR BERISH TARTIBI

### 5.1. Sovg'a berishda asosiy talablar va cheklovlar

5.1.1. Jamiyatda biznes sovg'alarining quyidagi turlarini berishga ruxsat etiladi:

- brendli biznes sovg'alar;
- boshqa asosli biznes sovg'alar.

5.1.2. Faqat Jamiyat raisi va Jamiyat boshqaruvi a'zolari tomonidan tomonidan hamkorlarga ish sovg'alari berishga ruxsat etiladi.

5.1.3. Bir xil tadbir munosabati bilan bir xil oluvchiga Jamiyat va tizim korxonalari tomonidan bir nechta ish sovg'alarini berish qabul qilinmaydi. Bunday vaziyatda Jamiyat tomonidan markazlashgan tabriknoma tashkil etilishi, tabriknoma yuborgan xodimlarni ko'rsatib o'tilishi lozim.

5.1.4. Kontragentga, hamkorga yagona tadbir munosabati bilan Jamiyat nomidan taqdim qilingan biznes-sovg'a quyidagi qiymatdan oshmasligi kerak:

- Kontragentning yuqori boshqaruvi rahbarlari uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 5 (besh) baravari miqdoridan;

- Kontragentning yuqori boshqaruviga bevosita bo'ysunuvchi bo'lim boshliqlari uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 3 (uch) baravari miqdoridan;

- Kontragentning boshqa xodimlari uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining ko'pi bilan 2 (ikki) baravari miqdoridan;

Belgilangan chegaralardan oshib ketishiga yo'l qo'yilmaydi.

### 5.2.1. Biznes sovg'alarini sotib olish tartibi

5.2.2. Brendli biznes sovg'alarini sotib olish Jamiyatning Ishlar boshqarmasi tomonidan markazlashtirilgan holda amalga oshiriladi.

5.2.3. Biznes sovg'alarini markazlashgan holda sotib olish Jamiyatning xaridlar sohasidagi ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq va tegishli xarajatlar uchun tasdiqlangan yillik budjet doirasida amalga oshiriladi.

5.3. Kontragentlar, hamkorlar va boshqa uchinchi shaxslarga biznes sovg'alarini xaridi va berish tartiblari.

5.3.1. Agar kontragentlar, hamkorlar yoki boshqa uchinchi shaxslarga biznes sovg'alarni berish zaruriyati tug'lsa, Jamiyatning manfaatdor tarkibiy bo'linmasi rahbari 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmay Ishlar boshqarmasi boshlig'iga sovg'a qilish bo'yicha xizmat xati tayyorlaydi va yuboradi (ushbu siyosatining 1 ilovasiga muvofiq), biznes sovg'a(lar) nom(lar)i, qiymati va zaruriy soni, qabul qiluvchi(lar)ning ismi familiyasi va sharifi, u(lar)ning lavozim(lar)i, qabul qiluvchi(lar)ning ish joyi, hadya sababi ko'rsatiladi.

5.3.2. Xizmat xati biznes sovg'alar hadya qiluvchi manfaatdor tarkibiy bo'linma rahbari tomonidan Iqtisodiyot va moliyalashtirish boshqarmasi bilan kelishilgan holda, imzolangan va tasdiqlangan yillik budjet xarajatlari moddalariga muvofiq bo'lishi kerak.

5.3.3. Agar tegishli xarajatlar moddasi bo'yicha biznes sovg'alari uchun budjet ajratilmagan bo'lsa, xizmat xati qo'shimcha ravishda «O'zbek geologiya qidiruv» aksiyadorlik jamiyati raisi tomonidan tasdiqlanishi kerak. Bundan tashqari, Jamiyat budjetiga tuzatishlar kiritish Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshirilishi talab etiladi.

5.3.4. Agar xorijiy davlat mansabdor shaxsi biznes sovg'asini oluvchi sifatida ishtirok etsa, xizmat xati korrupsion xavf-xatari yo'qligini aniqlash uchun Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati bilan kelishilgan holda imzolanishi kerak.

5.3.5. Jamiyatning Ishlar boshqarmasi boshlig'i ko'rsatilgan kelishuv orqali imzolangan xizmat xatini olganidan so'ng 3 (uch) ish kuni ichida uni ko'rib chiqishi, kerakli miqdordagi biznes sovg'alarni, manfaatdor bo'limlar uchun maxsus sotib olish yo'li bilan yoki Jamiyat omborida mavjud bo'lgan resurslar hisobidan belgilangan muddatda ta'minlashi shart (ilgari sotib olingan va/yoki hadya qilinmay ma'muriy-xo'jalik bo'limiga qaytib berilgan sovg'alar ham kiradi).

Biznes sovg'alarini manfaatdor bo'linmaga berish ro'yxati biznes sovg'alarini yuritish reyestrda qayd etiladi va ushbu siyosatining 2-ilovasiga muvofiq Ishlar boshqarmasi tomonidan yuritiladi.

Agar siyosatining 5.3.1-bandida ko'rsatilgan hujjatlarning va/yoki 5.3.2- va 5.3.4-bandlarida ko'rsatilgan kelishuvlarning loaqal birortasi bo'lmasa, Ishlar boshqarmasi rahbari to'plam hujjatlarini olganidan so'ng 3 (uch) ish kuni ichida tegishli bo'linma rahbarini bu haqida xabardor qilishi va talab qilingan biznes sovg'alarni taqdim etishni rad qilish orqali xizmat xatiga javob berishi mumkin.

5.3.6. Ishlar boshqarmasi siyosatining 2-ilovasiga muvofiq mustaqil ravishda Jamiyatning tarkibiy bo'linmalaridan biznes tadbirlari, kasbiy va rasmiy davlat bayramlari munosabati bilan biznes sovg'alari zaruriy miqdorlari haqida ma'lumot yig'ishi mumkin.

Bu holda Ishlar boshqarmasi mustaqil ravishda biznes sovg'alarining konsolidatsiyalashgan ro'yxatini yaratish uchun siyosatining 5.3.2- va 5.3.4-bandlarida belgilangan kelishuvlarni tasdiqlatishi kerak. 5.3.2- va 5.3.4-bandlarida ko'rsatilgan kelishuvlardan birortasi bo'lmagan taqdirda, Ishlar boshqarmasi rahbari (masalan, O'zbekiston Respublikasi davlat mansabdor shaxslari uchun biznes-sovg'a talab qilinayotgan bo'lsa) biznes-sovg'a berish haqidagi tegishli tarkibiy bo'linma rahbari so'rovini rad qilganligi va biznes-sovg'ani konsolidatsiyalashgan ro'yxatdan chiqarganligi to'g'risida xabardor qilishi kerak.

5.3.7. Agar biron-bir sababga ko'ra biznes sovg'alari Jamiyat xodimi tomonidan oluvchiga taqdim etilmagan bo'lsa, u bu haqida Ishlar boshqarish bo'limini xabardor qiladi va olingan kundan boshlab ushbu siyosatining 5.3.1-bandiga muvofiq belgilangan 3 (uch) ish kuni ichida qaytarilishini ta'minlaydi yoki biznes sovg'asi xizmat safari vaqtida berilishi nazarda tutilgan bo'lsa, xizmat safari tugaganidan so'ng 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay qaytarilishini ta'minlaydi.

Biznes sovg'alarini qaytarish holati ushbu siyosatining 2-ilovasiga muvofiq Ishlar boshqarmasi tomonidan yuritiladigan biznes sovg'alarining hisobi reyestrda qayd etiladi va biznes sovg'asini qaytargan Jamiyat xodimining shaxsiy imzosi bilan tasdiqlanadi.

5.3.8. Agar biznes sovg'asi dastlab mo'ljallangan shaxsga berilmagan bo'lsa (ya'ni xizmat xatida ko'rsatilgan), Jamiyat xodimi ushbu siyosatning 5.3.1-bandiga muvofiq biznes sovg'asini belgilangan 3 (uch) ish kuni ichida qaytarilishini ta'minlaydi yoki biznes sovg'asi xizmat safari vaqtida berilishi nazarda tutilgan bo'lsa, xizmat safari tugaganidan so'ng 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay qaytarilishini ta'minlaydi va Ishlar boshqarmasiga siyosatning 1-ilovasiga muvofiq yangi oluvchining nomi, nimaga o'zgarganligi sabablari hamda sovg'a berish sabablarini ko'rsatib xizmat xati taqdim etadi.

Oluvchining biznes sovg'ani almashtirish holati ushbu siyosatning 2-ilovasida ko'rsatilgan shaklda Ishlar boshqarmasi tomonidan yuritiladigan biznes sovg'alarini hisobi reyestrda qayd etiladi va biznes sovg'asini sovg'a qilgan Jamiyat xodimining shaxsiy imzosi bilan tasdiqlanadi.

5.4. Ko'rgazmalar va boshqa marketing tadbirlari doirasida biznes sovg'alarini tasdiqlash va berish tartiblari.

5.4.1. Ko'rgazmalar va boshqa marketing tadbirlari doirasida ushbu siyosatning 4.1-bandi talablariga to'liq mos keladigan, shu jumladan, belgilangan xarajatlar chegarasi doirasidan chiqib ketmagan holda brendli biznes sovg'alarini berishga ruxsat etiladi. Ko'rgazma yoki boshqa marketing tadbirlarida biznes sovg'alarini olishdan manfaatdor bo'lgan Jamiyat bo'linmasi rahbari, ularni bunday tadbir o'tkaziladigan sanadan oldin 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmay Jamiyatning Ishlar boshqarmasiga topshirishi lozim:

- Jamiyat boshqaruvi raisi yoki Jamiyatning boshqa vakolatli shaxsi tomonidan imzolangan ushbu tadbirni o'tkazish to'g'risidagi buyruq, farmoyish, ko'rsatma yoki boshqa shu kabi hujjat;

- tadbirning nomi, sanasi va joyi, tadbir ishtirokchilarining taxminiy (hozirgi vaqtda ma'lum bo'lgan) soni, tadbirda davlat mansabdor shaxslarining ishtiroki haqida ma'lumot, brendli biznes sovg'alari nomi, biznes sovg'asi uchun taxminiy xarajat, kerakli miqdor va ularni taqdim etish muddati (ushbu siyosatning 1-ilovasiga muvofiq).

5.4.2. Xizmat xati markali biznes sovg'alar hadya qiluvchi manfaatdor tarkibiy bo'linma rahbari tomonidan Iqtisodiyot va moliyalashtirish boshqarmasi bilan kelishilgan holda, imzolangan va tasdiqlangan yillik budget xarajatlari moddalariga muvofiq bo'lishi kerak.

5.4.3. Agar tegishli xarajatlar moddasi bo'yicha brendli biznes sovg'alari uchun budget ajratilmagan bo'lsa, xizmat xati qo'shimcha ravishda «O'zbek geologiya qidiruv» aksiyadorlik jamiyati raisi tomonidan tasdiqlanishi kerak. Bundan tashqari, Jamiyat budgetiga tuzatishlar kiritish Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshirilishi talab etiladi.

5.4.4. Jamiyatning Ishlar boshqarmasi boshlig'i siyosatning 5.4.1-bandida ko'rsatilgan hujjatlarni olganidan so'ng va 5.4.2- va 5.4.3-bandlarida ko'rsatilgan kelishuv orqali imzolangan xizmat xatini olganidan so'ng 3 (uch) ish kuni ichida uni ko'rib chiqishi, kerakli miqdordagi markali biznes sovg'alarni, manfaatdor bo'limlar uchun maxsus sotib olish yo'li bilan yoki Jamiyat omborida mavjud bo'lgan resurslar hisobidan belgilangan muddatda ta'minlashi shart (ilgari sotib olingan va / yoki sovg'a qilinmay ma'muriy-xo'jalik bo'limiga qaytib berilgan sovg'alar ham kiradi).

Brendli biznes sovg'alarini manfaatdor bo'linmaga berish ro'yxati biznes sovg'alarini yuritish reyestrda qayd etiladi va ushbu siyosatning 2-ilovasiga muvofiq Ishlar boshqarmasi tomonidan yuritiladi.

Agar siyosatning 5.3.1- va 5.4.1-bandlarida ko'rsatilgan hujjatlarning va / yoki 5.3.2- va 5.3.4-bandlarida ko'rsatilgan kelishuvlarning loaqal birortasi bo'lmasa, Ishlar boshqarmasi rahbari to'plam hujjatlarini olganidan so'ng 3 (uch) ish kuni ichida tegishli bo'linma rahbarini bu haqida xabardor qilishi va talab qilingan markali biznes sovg'alarni taqdim etishni rad qilish haqida xizmat xatiga javob berishi shart.

5.4.5. Brendli biznes sovg'alarini olgan rahbar ularni maqsadli ishlatilishi uchun javobgardir.

5.4.6. Ko'rgazma yoki boshqa marketing tadbirlaridan keyin qolgan brendli biznes sovg'alari Jamiyat xodimi tomonidan Ishlar boshqarmasiga 3 (uch) ish kuni ichida qaytarilishini ta'minlanadi yoki xizmat safari tugaganidan so'ng 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay qaytarilishi ta'minlanadi.

Biznes sovg'alarini qaytarish holati ushbu siyosatining 2-ilovasiga muvofiq Ishlarni boshqarish tomonidan yuritiladigan brendli biznes sovg'alarining hisobi reyestrda qayd etiladi va markali biznes sovg'asini qaytargan Jamiyat xodimining shaxsiy imzosi bilan tasdiqlanadi.

5.6. Taqdim qilingan biznes sovg'alarning buxgalteriya hisobi va nazorati.

5.6.1. Markazlashtirilgan xaridlar doirasida sotib olingan va/yoki topshirilmagan biznes sovg'alari Ishlar boshqarmasi tomonidan nazorat qilinadigan Jamiyat omborida saqlanadi.

5.6.2. Ishlar boshqarmasi ushbu siyosatining 2-ilovasiga muvofiq Jamiyat xodimlarining xizmat xatlari hamda hadyalar to'g'risidagi hisobotlari asosida tuzilgan biznes sovg'alar reyestrini aniq va to'liq saqlanishini ta'minlaydi.

5.2.7. Har chorakda, hisobot choragining oxirgi oyidan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay, Ishlar boshqarmasi hisobot davri uchun sovg'alar reyestrlarini Ichki nazorat boshqarmasiga taqdim etadi.

### **5.3. Biznes sovg'alar qabul qilish tartibi**

5.3.1. Qabul qilingan biznes sovg'alari bilan ishlash tartibi.

5.3.1.1. Biznes sovg'asini qabul qilgan xodim uni ushbu siyosat talablariga muvofiqligini belgilaydi, shu jumladan, uning taxminiy bozor narxini ommaviy tarmoqlardan (shu jumladan, internet tarmoqlaridan) baholaydi.

Agar xodim sovg'ani qabul qila olmasligiga shubha qilsa, ular Ichki nazorat boshqarmasiga murojaat qilishlari mumkin.

5.3.1.2. Xodim ushbu siyosat talablariga javob bermaydigan biznes sovg'asini olishni rad etish va uni hadya vaqtida beruvchiga qaytarish bo'yicha oqilona choralar ko'rishi kerak.

5.3.2.3. Biznes sovg'asini beruvchiga qaytarish har doim Jamiyatning sovg'ani qaytarayotgan xodimi tomonidan minnatdorchilik xati bilan birga qaytarilishi lozim. Minnatdorchilik xati qo'lda yoki Jamiyatning markali blankida bosilgan bo'lishi va ushbu siyosatining 4-ilovasida ko'rsatilgan matnni o'z ichiga olishi kerak.

Biznes sovg'asi qaytarilganidan so'ng bir ish kunidan kechiktirmay sovg'ani qaytargan xodim Ichki nazorat boshqarmasiga sovg'a beruvchiga sovg'a bilan birga qaytarilgan minnatdorchilik xatining skaner nusxasi hamda sovg'ani qabul qiluvchi, sovg'a beruvchi, sovg'aning tavsifi qayd etilgan elektron xatni taqdim etishi shart.

5.3.2.4. Agar sovg'a beruvchiga qaytarib yuborilayotgan biznes sovg'a Jamiyatning ishbilarmonlik obro'siga va/yoki Kontragent bilan biznes munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan bo'lsa yoki boshqa sabablar bilan uni qaytarishni imkoni bo'lmasa, agar sovg'a esdalik yoki yodgorlik bo'lsa, u holda Jamiyat muzeyiga topshirilishi lozim. Boshqa hollarda, sovg'a xayriya maqsadlarida yoki korporativ tadbirlarda foydalanish uchun Jamiyatning Ishlar boshqarmasiga topshirilishi lozim.

5.3.2.5. Ushbu siyosatining talablariga mos kelmaydigan biznes sovg'alarini topshirishda Jamiyat xodimi sovg'ani topshirish to'g'risida dalolatnoma tuzadi (Ushbu siyosatining 5-ilovasidagi shaklga muvofiq) va uni sovg'a bilan birga, sovg'ani olgan kunidan boshlab (xizmat safaridan qaytganidan so'ng bir ish kunidan kechiktirmay Jamiyatning Ishlar boshqarmasiga topshirishi shart. Bir vaqtning o'zida xodim sovg'ani topshirganligi to'g'risidagi dalolatnoma nusxasini elektron pochta orqali Ichki nazorat boshqarmasiga jo'natadi.

5.3.2.6. Biznes sovg'ani qabul qilib olgan Ishlar boshqarmasi boshlig'i sovg'a topshirilganligi to'g'risidagi dalolatnomani ushbu siyosatining 6-ilovasi talablariga muvofiq qabul qilingan biznes sovg'alarini elektron reyestriga kiritadi va uni Jamiyat sovg'alar muzeyiga topshirilishini hamda xayriya maqsadlarida yoki korporativ tadbirlarda foydalanishini ta'minlaydi.

5.3.3. Qabul qilingan biznes sovg'alarini hisobga olish va nazorat qilish.

5.3.3.1. Har chorakda, hisobot choragining oxirgi oyining 5-kunidan kechiktirmay Ishlar boshqarmasi Ichki nazorat boshqarmasiga hisobot davrida Jamiyatga berilgan biznes sovg'alari reyestrini taqdim etadi.

#### **5.4. Jamiyat xodimlari tomonidan ishbilarmonlik mehmondo'stligi belgilarini qabul qilish tartibi**

5.4.1. Jamiyatning xodimlariga o'zlarining rasmiy vazifalarini bajarish vaqtida, ushbu siyosatining talablarga to'liq rioya qilgan holda, biznes mehmondo'stligining kamtarona va tegishli belgilarini qabul qilishlari, shu jumladan, ishbilarmonlik tushligi, kechg'i ovqatga takliflarni qabul qilishlariga ruxsat etiladi.

5.4.2. Biznes mehmondo'stlik belgilari ko'ngilochar bo'lmasligi, ularning asosiy maqsadi Jamiyatning qonuniy manfaatlariga xizmat qilsa axborot almashinuvi o'tkazish, biznes va ish masalalari muhokamasi va yoki boshqa shunga o'xshash maqsadlardan iborat bo'lishi lozim.

5.4.3. Jamiyat xodimlariga ushbu siyosat talablariga javob bermaydigan ishbilarmonlik mehmondo'stlik belgilarini qabul qilish taqiqlanadi. Shu bilan birga, bunday tadbirda ishtirok etishga doir ma'lumotlar oshkor qilingan taqdirda Jamiyat va taklifni qabul qiluvchi yoki taklif etayotgan tomon mavqei uchun xatar tug'dirmasligi lozim.

### **6. BIZNES TADBIRLARI**

#### **6.1. Biznes-tadbirlarini tashkil etish va ishtirok etishning umumiy tamoyillari va talablari**

6.1.1. Uchinchi shaxslarni taklif qilish va Jamiyat xodimlari tomonidan biznes tadbirlarida ishtirok etish taklifini qabul qilish faqat bunday tadbirlar quyidagi talablarga javob beradigan hollarda joizdir:

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, ushbu siyosatining prinsiplari va talablariga, korrupsiyaga qarshi siyosatga, odob-axloq kodeksiga va Jamiyatning boshqa ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq bo'lsa;

- Jamiyatning qonuniy xo'jalik ish faoliyati yoki taklif qiluvchi tomon (Jamiyatning kontragenti) bilan ularning kasbiy o'zaro aloqalariga mos kelsa;

- biznes maqsadida yoki ularni o'tkazilishi biznes-tadbir munosabati doirasida tashkil etiladi;

- o'zining mazmuni va qiymati bilan mos keluvchi va biznes tadbirlariga mos joylarda o'tkaziladi;

- haddan tashqari hashamatga, qimmat xarajatlarga, isrofgarchilikka yo'l qo'yilmasdan yoki tez-tez takrorlanmasligi lozim;

- Jamiyatning xo'jalik faoliyati bilan bog'liq noqonuniy imtiyozlar oladigan yashirin mukofot bo'lmasligi kerak.

6.1.2. Jamiyat xodimlariga faqat ko'ngilxushlik maqsadida uchinchi shaxslardan taklif qabul qilish yoki uchinchi shaxslarni taklif qilish qat'iyan taqiqlanadi.

Jamiyat tomonidan tashkil etilgan yoki Jamiyat xodimlari ishtirok etgan har qanday tadbir dasturining ishbilarmonlik qismi tadbirning umumiy vaqtidan kamida 75% tashkil qilishi kerak.

6.1.3. Jamiyat xodimlari taklif qilingan ishbilarmonlik doirasida o'tkazilmaydigan sport va madaniy tadbirlar chiptalari biznes sovg'alari sifatida tasniflanishi lozim.

6.1.4. Taklif etilgan davlat amaldorlari ishtirokida biznes-tadbirlarni o'tkazadigan xodimlar korrupsion xavf mavjudligini inobatga olib, bunday tadbirni Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati xodimlari bilan oldindan kelishib olishlari lozim.

6.1.5. Mansabdor shaxs Jamiyat tomonidan tashkil etilgan yoki o'tkaziladigan konferensiyalar, seminarlar va shunga o'xshash biznes tadbirlarida ommaviy nutq so'zlashga taklif etilsa, unga bunday tadbirlar doirasida nutq va nashrlar uchun haq yoki mukofot puli to'lash taqiqlanadi. Boshqa uchinchi shaxslarning tadbirlarida chiqishlari uchun to'lovi asoslangan bo'lishi va bozordagi shunday xizmatlar qiymatiga mos kelishi kerak.

6.1.6. Jamiyat kontragentlar va hamkorlar, uchinchi shaxslar (homiylar) tomonidan tashkil etilgan tashqi tadbirlarda boshqa uchinchi shaxslarning ishtiroki uchun xarajatlarni to'lashni taqiqlaydi, Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlari bilan belgilangan Jamiyat bilan tuzilgan shartnomalarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

6.1.7. Biznes tadbirlariga taklifnomalarni qabul qiluvchi Jamiyat xodimlari ushbu siyosatda belgilangan talablarga muvofiqligini dastlabki tekshirish va baholash, shuningdek ushbu siyosatda nazarda tutilgan barcha zarur tasdiqlarni olish uchun shaxsan javobgardirlar.

6.1.8. Agar biznes-tadbirning maqbulligi, uning o'tkazilish joyi yoki unda ishtirok etish narxi haqida shubhalar mavjud bo'lsa, Jamiyat xodimlari bevosita rahbari yoki Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati bilan maslahatlashishlari shart.

## **6.2. Biznes-tadbirlarni tashkil etish tartibi**

6.2.1. Kontragentlar, hamkorlar yoki boshqa uchinchi shaxslar taklif etiladigan biznes-tadbirlarni tashkil etishda Jamiyatning manfaatdor bo'lim boshlig'i Ishlar boshqarmasi boshlig'iga tadbir o'tkazilishidan kamida 20 (yigirma) ish kuni oldin xizmat xati tayyorlaydi va yuboradi. Unda quyidagilarni ko'rsatadi:

- tadbirni o'tkazishga sabab, tadbir rejasi va shakli;
- Jamiyat ishtirokchilari soni va tashqi ishtirokchilar soni (shu jumladan taklif etilgan davlat amaldorlari);
- Tashqaridan taklif qilingan ishtirokchilar I.F.Sh., ularning lavozimi va ish (xizmat) joyi.

6.2.2. Ishlar boshqarmasi rahbari 6.2.1. bandeda ko'rsatilgan xizmat xatini olganidan 5 (besh) ish kuni ichida uni ko'rib chiqishi va tadbirni o'tkazish uchun ketadigan xarajatlar smetasini tadbirni o'tkazishdan manfaatdor tarkibiy bo'linmalar rahbarlari bilan kelishgan holda tasdiqlashi shart.

6.2.3. Jamiyatning manfaatdor bo'linmasi rahbari smeta bilan birgalikda xizmat xatini, Iqtisodiyot va moliyalashtirish boshqarmasiga tegishli xarajat moddalari bo'yicha yillik budjetga muvofiqligini tasdiqlash uchun taqdim etadi.

6.2.3.1. Agar tegishli xarajatlar moddasi bo'yicha tadbirlarni o'tkazish uchun budjet ajratilmagan bo'lsa, xizmat xati qo'shimcha ravishda «O'zbek geologiya qidiruv» aksiyadorlik jamiyati raisi tomonidan tasdiqlanishi kerak.

6.2.4. Barcha zarur kelishuvlar bo'lganidan so'ng, Jamiyatning manfaatdor bo'linmasi rahbari yakuniy tasdiqlash uchun smeta bilan birga xizmat xatini «O'zbek geologiya qidiruv» aksiyadorlik jamiyati raisiga taqdim etadi. So'ngra Jamiyat Ishlar boshqarmasi boshlig'iga 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmay tadbirni tashkil etish uchun yo'llaydi.

6.2.5. Biznes-tadbirlarni tashkil etish uchun tovarlar/ishlar/xizmatlarni xarid qilish Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarida belgilangan ta'minot tartiblariga muvofiq amalga oshiriladi.

6.2.6. Har chorakda hisobot choragi oxirgi oyining 5-kunidan kechiktirmay Jamiyatning Ishlar boshqarmasi hisobot choragida tashkil etilgan biznes-tadbirlar to'g'risida hisobotni Ichki nazorat boshqarmasiga taqdim etadi.

### 6.3. Tashqi biznes tadbirlarida xodimlarning ishtiroki

6.3.1. Xodimlarga uchinchi shaxslar taklifiga binoan ish va ko'ngilochar tadbirlarda ishtirok etish uchun vaqti-vaqti bilan ruxsat etiladi, agar bunday tadbirlar siyosatining 6.1-bandida belgilangan talablarga to'liq mos kelsa.

6.3.2. Boshqa joyga chiqish munosabati (xodimning asosiy ish joyi hisoblangan aholi turur joyidan chetga chiqilsa) bilan tashkil qilinadigan biznes va ko'ngilochar tadbirlarda ishtirok etish uchun, xodimning tadbir joyiga yetib kelishi, doimiy yashash joyidan tashqarida yashashi uchun turar joy xarajatlari va boshqa xarajatlar uchun quyidagi cheklovlar o'rnatiladi:

- Agar takliflar kontragent/hamkor va Jamiyat o'rtasidagi muzokaralar vaqtida yoki muzokaralardan keyin, shartnomalar tuzishdan yoki ular o'rtasidagi moliyaviy va xo'jalik munosabatlarida har qanday masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishdan 3 (uch) oy oldin / yoki keyin (investitsiyalarga nisbatan, shu jumladan, savdo va boshqalar) kelib tushsa ularni qabul qilish taqiqlanadi.

- Taklif qiluvchi tomon taklif yuborgan vaqtida 3 (uch) oy oldin/keyin Jamiyat tomonidan o'tkaziladigan xarid jarayonlari ishtirokchisi bo'lsa, ushbu taklifni qabul qilish taqiqlanadi.

Agar Jamiyat xodimlarini biznes tadbirlarida ishtirokiga homiylik qilish kontragent tomonidan Jamiyat bilan imzolangan shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshirilganda ushbu taqiqlar tatbiq etilmaydi.

6.3.3. Biznes va ko'ngilochar tadbirlarga takliflarni qabul qilish har doim bevosita rahbarning yozma ruxsati bilan xodim uchun tadbir joyiga borish, safar xarajatlari, turar joy va boshqa qo'shimcha xarajatlarni to'lash Ichki nazorat boshqarmasining yozma ruxsatiga asosan amalga oshirilishi mumkin.

## 7. VAKILLIK XARAJATLARINI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

### 7.1. Vakillik xarajatlarini amalga oshirishning umumiy tamoyillari va talablari

7.1.1. Jamiyatga ushbu siyosat talablariga javob beradigan vakillik xarajatlarini amalga oshirishga ruxsat beriladi.

Bu siyosat maqsadlari uchun vakillik xarajatlari quyidagi xarajatlarni o'z ichiga oladi:

- rasmiy qabul o'tkazish (nonushta, tushlik yoki boshqa shu kabi tadbirlar);
- muzokaralar chog'ida bufet xizmati;
- rasmiy tadbirda ishtirok etadigan shaxslarni tadbir joyiga yetkazish va qaytarib olib kelish bo'yicha transport ta'minoti;
- vakillik tadbirlari o'tkazishda Jamiyat shtatida bo'lmagan tarjimonlar xizmatlari uchun to'lov;
- xorijiy hamkorlarga sovg'alar.

7.1.2. Vakillik xarajatlari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, korrupsiyaga qarshi siyosat, biznes etikasi kodeksi va Jamiyatning boshqa ichki me'yoriy hujjatlari tamoyillari va talablariga rioya qilish;

- Jamiyatda tasdiqlangan budjet, shuningdek belgilangan chegaralar doirasida amalga oshirilishi;

- qonuniy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lishi;

- ishbilarmonlik maqsadi yoki hodisasi bilan bog'liq bo'lishi;

- o'zining mazmuni va qiymati bilan mos keluvchi va biznes tadbirlariga mos joylarda o'tkazilishi;

- uchinchi shaxslar tomonidan naqd pul ko'rinishida yoki kompensatsiya sifatida hisob-varaqlarga to'lovlarni amalga oshirmaslik.

- Jamiyatning xo'jalik faoliyati bilan bog'liq noqonuniy imtiyozlar oladigan yashirin mukofot bo'lmasligi;

- bunday tadbirda ishtirok etish haqida ma'lumotlar oshkor bo'lgan taqdirda, Jamiyat va taklif olgan/taklif qilgan (Jamiyatning Kontragenti) mavqeini tushiradigan xavfni yaratmasa.

7.1.3. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining davlat mansabdor shaxslariga nisbatan vakillik xarajatlarini amalga oshirishni taqiqlaydi.

Xorijiy davlatning davlat mansabdor shaxslariga vakillik xarajatlarini amalga oshirish faqat rasmiy delegatsiyalar va / yoki xalqaro ko'rgazmalar doirasida ruxsat etiladi, bu xorijiy davlat qonunchiligi talablariga to'g'ri kelishiga rioya qilinishi sharti bilan.

Vakillik xarajatlari amalga oshiriladigan shaxsning, davlat mansabdor shaxsining maqomiga tekshirish va xorijiy davlatning talablarini tahlil qilish uchun javobgarlik ushbu shaxsga vakillik xarajatlarini amalga oshirishni tashkil qilgan Jamiyat xodimiga yuklatiladi.

7.1.4. Vakillik xarajatlarini amalga oshiradigan xodimlar, ushbu siyosatda ko'rsatilgan talablarga to'liq va so'zsiz rioya qilish hamda ushbu siyosatda ko'rsatib o'tilgan barcha zarur kelishuvlarni tasdiqlatish uchun shaxsan javobgardirlar.

7.1.5. Agar vakillik xarajatlarini amalga oshirish maqbulligi haqida shubhalar mavjud bo'lsa, xodimlar ularni bevosita rahbar yoki Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati bilan muhokama qilishlari shart.

## **7.2. Vakillik xarajatlarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan shaxslar**

7.2.1. Vakillik xarajatlarini amalga oshirish imkoniyati xodimlarga egallab turgan lavozimiga qarab taqdim etiladi. Vakillik xarajatlarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan xodimlarning lavozimlari ro'yxati Jamiyat Boshqaruvi raisining buyrug'i bilan belgilanadi.

7.2.2. Jamiyatda vakillik xarajatlarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan har bir lavozim uchun, bunday xarajatlarini amalga oshirishning alohida oylik chegarasi belgilab beriladi. Oylik limitlar vakillik xarajatlarini amalga oshirish huquqiga ega lavozimlar ro'yxati bilan birgalikda Jamiyat Boshqaruvi raisining buyrug'i bilan belgilanadi. Vakillik xarajatlari chegarasi har oyda yangilanadi va keyingi davrga o'tmaydi.

7.2.3. Vakillik xarajatlarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan xodim, alohida tadbirni o'tkazish uchun o'zining vakolatini bo'ysunuvida bo'lgan xodimga Boshqaruv raisi bilan kelishilgan holda xizmat xatini imzolash orqali amalga oshirishi mumkin.

### **7.3. Vakillik xarajatlarini to'lash tartibi**

7.3.1. Vakillik xarajatlari to'lovlarini korporativ karta yordamida naqd pulsiz mablag'lar orqali amalga oshirish maqbul usul hisoblanadi. Korporativ kartadan foydalanish tartibi Jamiyatning alohida ichki me'yoriy hujjati bilan tartibga solinadi.

7.3.2. Xodimning ish haqi yoki boshqa kartochkadagi naqd pulsiz pul mablag'laridan vakillik xarajatlari uchun to'lovlarni amalga oshirishga yo'l qo'yiladi, taqdim etilgan hujjatlar asosida sarflangan mablag'larni keyinchalik qoplab berish sharti bilan.

7.3.3. Xodimlarga boshqa to'lov usullari mavjud bo'lsa, vakillik xarajatlari to'lovlarini shaxsiy naqd pulda to'lash tavsiya etilmaydi.

7.3.4. Jamiyatda vakillik xarajatlari to'lovlarini amalga oshirishda, ularni uchinchi shaxslarga to'g'ridan-to'g'ri naqd pul yoki naqd pulsiz shaklda berishni ta'qiqlanadi, Jamiyat bilan bunday uchinchi shaxslarning kelishuvlari shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

7.3.5. Amalga oshirilgan vakillik xarajatlarini qoplash/tasdiqlash uchun, uni to'lashga haqli bo'lgan xodim, vakillik xarajatlari amalga oshirilganidan so'ng 3 (uch) ish kunidan kechiktirmasdan (yoki xizmat safaridan qaytgan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida), buxgalteriya bo'limiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

- Vakillik xarajatlari to'g'risidagi hisobot (ushbu siyosatining 8-ilovasidagi shaklga muvofiq) quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

(a) sana va joy, tadbir maqsadi / biznes uchrashuv / yig'ilish;

(b) tadbir dasturi / biznes uchrashuv / yig'ilish (muhokama qilingan masalalar) va uning natijalari;

(v) uchrashuv ishtirokchilari / biznes uchrashuv /; Jamiyat tomonidan yig'ilish

(g) taklif etilgan ishtirokchilar (ish joylari va lavozimlarini ko'rsatgan holda) davlat mansabdor shaxslariga tegishliligi belgisi bilan (agar mavjud bo'lsa);

(d) qilingan xarajatlar umumiy summasi va ularning xarajat moddalari bo'yicha taqsimlanishi;

(e) agar iloji bo'lsa, tadbir ishtirokchilarining vizitka kartochkalari nusxalari hisobotga ilova qilinishi kerak.

- vakillik xarajatlari amalga oshirilganligini tasdiqlovchi (cheklar, schot-fakturalar, tushumlar va boshqalar) tegishli birlamchi hujjatlarning asl nusxalari.

7.3.6. Agar ushbu siyosatining 7.2.2-bandida ko'rsatilgan limitlar oshib ketgan bo'lsa, hisobot buxgalteriya bo'limiga topshirilgunga qadar Jamiyat raisi tomonidan tasdiqlanishi kerak.

7.3.7. Buxgalteriya hisobi boshqarmasining mas'ul xodimi taqdim etilgan hujjatlarni ularning to'liqligi va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari me'yorlariga va ushbu siyosat talablariga muvofiqligini tekshiradi, shundan so'ng u vakillik xarajatlarini qoplashni ta'minlaydi.

7.3.8. Qonun hujjatlarida belgilangan hamda ushbu siyosatining tamoyillari va talablarga mos kelmaydigan vakillik xarajatlari xodimning shaxsiy xarajatlari deb tan olinadi va to'lab berilmaydi.

7.3.9. Har chorakda hisobot choragi oxirgi oyining 5-kunidan kechiktirmay buxgalteriya bo'limi hisobot choragida amalga oshirilgan vakillik xarajatlari to'g'risidagi hisobotni Ichki nazorat xizmatiga taqdim etadi.

## **8. HUJJATLAR VA YOZUVLARNI SAQLASHGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

8.1.1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va /yoki ushbu siyosatda nazarda tutilgan biznes sovg'alarni olish va taqdim etish, biznes tadbirlarda ishtirok etish va tashkil qilish, vakillik xarajatlarini amalga oshirish bo'yicha barcha hujjatlar, qonunda belgilangan muddatlargacha majburiy saqlanadi, lekin (Ishlar boshqarmasida, Buxgalteriya hisobi boshqarmasi va Ichki nazorat boshqarmasida) tegishli mas'ul shaxslarda kamida 10 yil majburiy saqlanishi shart.

8.1.2. Jamiyat biznes sovg'alar sotib olish va sovg'alar berish, biznes tadbirlarda ishtirok etish va tashkil etish, vakillik xarajatlarini amalga oshirish operatsiyalarini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablari hamda amaldagi buxgalteriya standartlari va qoidalariga muvofiq aks ettirilishini ta'minlashi lozim.

### **8. AMAL QILISH MUDDATI VA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH TARTIBI**

8.1.1. Bu siyosat doimiy amalda bo'lgan ichki me'yoriy hujjat hisoblanadi va «O'zbek geologiya qidiruv» aksiyadorlik jamiyati raisi buyrug'i bilan tasdiqlangan vaqtdan kuchga kiradi hamda uni bekor qilinishi yoki yangi tahrirda tasdiqlanguniga qadar amal qiladi.

8.1.2. Ushbu siyosatga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar «O'zbek geologiya qidiruv» aksiyadorlik jamiyati raisining alohida buyrug'i bilan kuchga kiritiladi.

# 1 -ilova – Biznes sovg‘alarini taqdim etish uchun xizmat xati shakli

[Ishlarni boshqarish bo‘limi boshlig‘i  
nomiga \_\_\_\_\_]

## XIZMAT XATI

Menga \_\_\_\_\_  
(Xodimning F.I.Sh, lavozimi, bo‘limi)

quyida ko‘rsatilgan Biznes sovg‘alarini sovg‘a sifatida bering, shundan so‘ng mas’ul shaxslar tegishli tashkilotlarga taqdim qilishadi:

| Biznes sovg‘aga tavsif | Asos/ tadbir | Taxminan taqdim qilingan sana/ tadbirlar | Biznes sovg‘aning taxminiy narxi | Sovg‘a oluvchi |          |          |
|------------------------|--------------|------------------------------------------|----------------------------------|----------------|----------|----------|
|                        |              |                                          |                                  | F.I.Sh.        | Lavozimi | Ish joyi |
|                        |              |                                          |                                  |                |          |          |
|                        |              |                                          |                                  |                |          |          |
| <b>Jami</b>            |              |                                          |                                  |                |          |          |

Bo‘lim rahbari \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
(F.I.Sh.)  
\_\_\_\_\_ « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 20 \_\_ y.  
(imzo) (sana)

Kelishilgan:

\_\_\_\_\_  
(F.I.Sh.)  
\_\_\_\_\_ « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 20 \_\_ y.  
(imzo) (sana)

\_\_\_\_\_  
(F.I.Sh.)  
\_\_\_\_\_ « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 20 \_\_ y.  
(imzo) (sana)

\_\_\_\_\_  
(F.I.Sh.)  
\_\_\_\_\_ « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 20 \_\_ y.  
(imzo) (sana)





### 3-ilova – Biznes sovg'alari to'g'risidagi hisobot shakli

[Ishlarni boshqarish bo'limi boshlig'i  
nomiga \_\_\_\_\_]

#### Biznes sovg'alari to'g'risida hisobot

Menga \_\_\_\_\_,  
(xodimning F.I.Sh., lavozimi, bo'limi ko'rsatiladi)

lavozim majburiyatlarini bajarish doirasida quyidagi biznes sovg'alari taqdim etildi:

| Biznes<br>sovg'aning<br>tavsifi | Biznes<br>sovg'aning<br>qiymati* | Asos/tadbir | Sovg'a<br>berilgan<br>sana | Sovg'ani qabul qiluvchi |          |             |
|---------------------------------|----------------------------------|-------------|----------------------------|-------------------------|----------|-------------|
|                                 |                                  |             |                            | F.I.Sh.                 | Lavozimi | Ish<br>joyi |
|                                 |                                  |             |                            |                         |          |             |
|                                 |                                  |             |                            |                         |          |             |
| JAMI                            |                                  |             |                            |                         |          |             |

\* — Biznes sovg'asining qiymati faqat berndli esdalik sovg'asi bo'lmagan va xodim tomonidan mustaqil ravishda sotib olingan biznes sovg'alari uchun ko'rsatiladi.

Xarajatlarni tasdiqlovchi dastlabki hujjatlar ilova qilinadi.

Sovg'a oluvchi xodim \_\_\_\_\_  
(F.I.Sh.)

\_\_\_\_\_ «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_y.  
(imzo) (sana)

Kelishilgan:

\_\_\_\_\_ (F.I.Sh.)  
\_\_\_\_\_ «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_y.  
(imzo) (sana)

\_\_\_\_\_ (F.I.Sh.)  
\_\_\_\_\_ «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_y.  
(imzo) (sana)

#### 4-ilova – Minnatdorlik xati namunasi

Kimdan \_\_\_\_\_

Kinga \_\_\_\_\_

Hurmatli \_\_\_\_\_,

Sizga e'tibor uchun minnatdorlik bildiraman \_\_\_\_\_ (*holatning nomlanishi*).

«O'zbek geologiya qidiruv» aksiyadorlik jamiyatida qabul qilingan siyosat va tartib-qoidalarga muvofiq, sizning sovg'angizni qabul qila olmayman, shuning uchun uni qaytarishga majbur bo'laman.

Kelgusida yanada samarali hamkorlikka umid qilaman.

Hurmat bilan \_\_\_\_\_

**5-ilova – Biznes sovgʻasini topshirish dalolatnomasining shakli**

**Biznes sovgʻasini topshirish dalolatnomasi**

Dalolatnomani tuzish sanasi— \_\_\_\_\_

Sovgʻa beruvchi xodim — \_\_\_\_\_

Sovgʻa beruvchi xodimning tarkibiy boʻlinmasi— \_\_\_\_\_

Men, \_\_\_\_\_  
(Xodimning I.F.O, lavozimi, boʻlimi koʻrsatiladi)

\_\_\_\_\_ ga topshirdim va u quyidagi sovgʻani  
(Ishlar boshqarmasiboshligʻi F.I.Sh.)

oldi: \_\_\_\_\_,  
(sovgʻaning nomi, taxminiy qiymati)

\_\_\_\_\_ tomonidan berilgan

\_\_\_\_\_   
(homiyning nomi, yuridik shaxsning F.I.Sh. koʻrsatiladi)

bilan bogʻliq \_\_\_\_\_  
(tadbirning nomi va sanasi)

\_\_\_\_\_ «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_y.  
(imzo) (sana)

**Sovgʻani qabul qilgan xodim:**

Xodimning F.I.Sh.: \_\_\_\_\_

Xodimning lavozimi: \_\_\_\_\_

Sovgʻani qabul qilish  
sanasi: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_y.  
(imzo) (sana)

**6 Ilova – «O‘zbek geologiya qidiruv» aksiyadorlik jamiyati xodimlari tomonidan olingan Biznes sovg‘alarni hisobga olish reyestri shakli**

**«O‘zbek geologiya qidiruv» aksiyadorlik jamiyati xodimlari tomonidan olingan Biznes sovg‘alarni hisobga olish reyestri**

| <b>№<br/>t/r</b> | <b>Qabul<br/>qilish<br/>sanasi</b> | <b>F.I.Sh. /<br/>lavozim /<br/>qabul<br/>qiluvchi<br/>xodimning<br/>tarkibiy<br/>bo‘linmasi</b> | <b>Biznes<br/>sovg‘aning<br/>tavsifi</b> | <b>Asos<br/>/tadbir</b> | <b>Sovg‘a<br/>beruvchini<br/>ng<br/>F.I.Sh./lav<br/>ozimi</b> | <b>Sovg‘a<br/>beruvchi<br/>tashkilot</b> | <b>Dalolatn<br/>omani<br/>tuzish<br/>sanasi va<br/>№</b> | <b>Biznes<br/>sovg‘ani<br/>joylashtiri<br/>sh1</b> | <b>Biznes<br/>sovg‘ani<br/>joylashtiri<br/>sh sanasi</b> | <b>Boshqa<br/>izohlar</b> |
|------------------|------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------|-------------------------|---------------------------------------------------------------|------------------------------------------|----------------------------------------------------------|----------------------------------------------------|----------------------------------------------------------|---------------------------|
| 1                | 2                                  | 3                                                                                               | 4                                        | 5                       | 6                                                             | 7                                        | 8                                                        | 9                                                  | 10                                                       | 11                        |
| 1                |                                    |                                                                                                 |                                          |                         |                                                               |                                          |                                                          |                                                    |                                                          |                           |
| 2                |                                    |                                                                                                 |                                          |                         |                                                               |                                          |                                                          |                                                    |                                                          |                           |
| 3                |                                    |                                                                                                 |                                          |                         |                                                               |                                          |                                                          |                                                    |                                                          |                           |
| 4                |                                    |                                                                                                 |                                          |                         |                                                               |                                          |                                                          |                                                    |                                                          |                           |
| 5                |                                    |                                                                                                 |                                          |                         |                                                               |                                          |                                                          |                                                    |                                                          |                           |
| ...              |                                    |                                                                                                 |                                          |                         |                                                               |                                          |                                                          |                                                    |                                                          |                           |

Eslatma:

1 – «O‘zbek geologiya qidiruv» aksiyadorlik jamiyati sovg‘alar muzeyi yoki boshqasi ko‘rsatilsin.

## 7 Ilova — Biznes-tadbirni tashkil etish uchun xizmat xatining shakli

[Ishlarni boshqarish bo'limi boshlig'i nomiga

### XIZMAT XATI

Menga \_\_\_\_\_  
(Xodimning I.F.O, lavozimi, bo'limi ko'rsatiladi)

quyidagi tadbirni tashkil qilish uchun kerakli budjetni taqdim qilishingizni so'rayman:

1. Tadbir formati: \_\_\_\_\_
2. Tadbirni o'tkazish uchun asos: \_\_\_\_\_
3. Tadbirni o'tkazish sanasi: \_\_\_\_\_
4. Tadbir ishtirokchilari: \_\_\_\_\_

| Ishtirokchining F.I.Sh. va lavozimi (Jamiyat xodimlari va taklif etilgan ishtirokchilar ham ko'rsatiladi) | Ish joyi | Davlat lavozimidagi shaxsmi? (ha / yo'q) | Bir ishtirokchi uchun xarajatlar |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------|------------------------------------------|----------------------------------|
|                                                                                                           |          |                                          |                                  |
|                                                                                                           |          |                                          |                                  |
|                                                                                                           |          |                                          |                                  |
| <b>Jami</b>                                                                                               |          |                                          |                                  |

Ilova: Tadbir smetasi

Tadbir tashabbuskori \_\_\_\_\_  
(F.I.Sh.)

\_\_\_\_\_ «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_y.  
(imzo) (sana)

Kelishilgan:

\_\_\_\_\_ (F.I.Sh.)  
\_\_\_\_\_ «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_y.  
(imzo) (sana)

\_\_\_\_\_ (F.I.Sh.)  
\_\_\_\_\_ «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_y.  
(imzo) (sana)

\_\_\_\_\_ (F.I.Sh.)  
\_\_\_\_\_ «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_y.  
(imzo) (sana)

## 8 Ilova — Vakillik xarajatlari hisoboti shakli

[«O‘zbek geologiya qidiruv» aksiyadorlik jamiyati raisi  
nomiga  
\_\_\_\_\_]

### Vakillik xarajatlari hisoboti

Men  
tomonidan \_\_\_\_\_,  
(Xodimning I.F.O, lavozimi, bo‘limi ko‘rsatiladi)

xizmat vazifalarni bajarish doirasida vakillik tadbirini o‘tkazish uchun  
\_\_\_\_\_ quyidagi pul mablag‘i sarflandi:

| Xarajatlar nomi | Summa | Tashkilotchi-<br>Bajaruvchi | Asosiy<br>(hisob,<br>dalolatnoma) |
|-----------------|-------|-----------------------------|-----------------------------------|
|                 |       |                             |                                   |
|                 |       |                             |                                   |
|                 |       |                             |                                   |
| JAMI            |       |                             |                                   |

O‘tkazish sanasi:

O‘tkazish joyi:

O‘tkazish manzili:

Jamiyat tomonidan ishtirokchilar  
(F.I.Sh., lavozimi):

Taklif etilgan ishtirokchilar:  
(F.I.Sh., lavozim, ish joyi, Davlat  
lavozimida bo‘lgan shaxsga tegishli  
bo‘lgan belgi):

Tadbir natijalari: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Vakillik xarajatlarini tasdiqlovchi dastlabki hujjatlar ilova qilinadi.

Tadbir tashabbuskori \_\_\_\_\_  
(F.I.Sh.)

\_\_\_\_\_ «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_y.  
(imzo) (sana)

Kelishilgan:

\_\_\_\_\_ (F.I.Sh.)

\_\_\_\_\_ «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_y.  
(imzo) (sana)

\_\_\_\_\_ (F.I.Sh.)

\_\_\_\_\_ «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_y.  
(imzo) (sana)

\_\_\_\_\_ (F.I.Sh.)

\_\_\_\_\_ «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_y.  
(imzo) (sana)